



O‘ZBEKISTONDA JANGCHILARNING FRONTDAGI FAOLITIYATI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Muhammadiyev Fayzulla*

Anotatsiya: Ushbu maqolada biz urush yillari davrida mustamlaka davlat sifatida qatnashgan O‘zbekiston askarlari faoliyati haqida urushda olib borgan qahramonliklari haqida bilib olishimiz mumkin

Kalit so‘zlar: Sovet, chor hukumati, milliy, jadid, qonun, qatag‘on, siyosat, jamiyat, ma‘muriy, mustamlaka.

Ma‘lumotlarga ko‘ra ikkinchi jahon urushiga O‘zbekistondan 1 mln 433.230 kishi safarbar etilgan. Bu urushga yaroqli aholining 50-60 foizini tashkil etardi. Bu urushda mamlakatimiz o‘g‘lonlarining fashist bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashida ularning matonati va yengilmasligini butun jahonga namoyish etgan bir qancha jang maydonlari bo‘lgan. Ana shunday jang maydonlaridan biri Brest qal‘asi edi. Bu qal‘ani ko‘p sonli fashist gazandalarining bir oy davomida quturib qilgan xujumlaridan mrdonavor himoya qilib, pirovardida barcha halok bo‘lgan jangchilar ichida bir necha o‘zbek o‘g‘lonlari ham bor edilar. Bulardan biri serjant Doniyor Abdullayev edi. U dushmanning qal‘aga qilgan hujumlaridan birida 4 nemisni o‘ldirib o‘zi ham halok bo‘ladi. Brest qal‘asini himoya qilishda o‘zlarining jasorati bilan dong taratgan O‘zbekistonlik jangchilar haqida gap ketganda T.Aliyev, Isayev, Yusupov, T.Xidirov, N.Sodiqov, A.Abdullayev va boshqa nomlarni alohida tilga olmoq kerak bo‘ladi. O‘zbekistonlik jangchilar, uning qurolli kuchlari og‘ir kechgan Kiyev, Smolensk, Odessa, Sevastopol va boshqa ko‘plab shaharlarning himoyalarida, bu shaharlar ostonalarida kechgan tarixiy janglarda ishtirok etdilar. Moskva ostonalarida uni himoya qilish uchun olib borgan janglarda I.V Panfilov qumondonligi ostidagi 8 gvardiyachi diviziya jangchilari qahramonlik namunalarini ko‘rsatib jang qildilar. Bu diviziya Qozog‘istonda tashkil qilingan bo‘lib uning sostavida Toshkentdagi piyoda qo‘shinlar bilim yurtida ta‘lim olgan 180 dan ortiq ofiserlar bor edi. Moskva himoyasida ko‘rsatgan xizmati uchun Oliy Bosh Qumondonlik tomonidan Qizil bayroq ordeni bilan mukofotlangan bu diviziya jangchilari orasida o‘zbek o‘g‘lonlari Zarif Ibragimov, Ikrom Jalilov, Mamadali Madaminov va boshqalar bor edilar. Moskva ostonalaridagi jangda juda ko‘plab O‘zbekistonlik jangchilar generallar N.A. Belov va L.M. Dovatorlar qumondonlik qilgan otliq korpuslarida mardlik namunalarini ko‘rsatib jang



qildilar. Mamlakatimizning o'sha vaqtdagi poytaxti Moskva ostonalaridagi ikkinchi jahon urushining eng qattiq janglarida o'zbek o'g'lonlari bilan bir qatorda o'zbek ayollari ham qatnashib o'z jasoratlarini namoyon etdilar. Ana shunday o'zbek ayollaridan biri Zebo G'aniyeva Moskva ostonalaridagi janglarda bir o'zi 28 ta fashistni yer tishlatdi. Ko'rsatgan bu jasorati uchun u Qizil Bayroq ordeni va Snayper belgisi bilan mukofotlandi. Umuman Moskva ostonalarida, uni himoya qilish janglarida ko'rsatgan jasoratlari uchun O'zbekistonlik jangchilardan 1753 kishi «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandilar. O'zbekistonlik jangchilar 1942 yilning yozidan 1943 yil bahorigacha Stalingrad ostonalarida bo'lib o'tgan janglarda ajoyib mardlik namunalari ko'rsatdilar. Snayperchi Abdujabbor Aliqulov 13 gitlerchini, yana bir snayperchi o'zbek ug'loni Xo'jamatov 117 ta pulemyotchi Xamro Ochilov esa 1500 fashistni qirib tashlaydilar. Stalingrad ostonalaridagi janglarda jasoratlari uchun 2788 O'zbekistonlik jangchilar «Stalingrad mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlandilar. O'zbekistonlik jangchilar ikkinchi jahon urushining Kursk –Oryol-Belgorod, Leningrad, Kavkaz, Boltiqbo'yi shaharlari, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Yugoslaviyada bo'lib o'tgan shiddatli janglarda faol ishtirok etdilar. Faqat 1944 yilda Qizil Armiyaning dushmanga qarshi olib borgan umumiy xujumi davrida O'zbekistonlik jangchilardan 78 kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi xolos... O'zbekistonlik jangchilardan 1706 kishi «Berlin olingani uchun» medali bilan mukofotlandi. Yurtimiz o'g'lonlari Yaponiyani tor-mor etishga qaratilgan janglarda ham aktiv ishtirok etdilar. Ana shu ishtiroki 6770 jangchilarimizga SSSR ordeni va medallari topshirildi. 2 jahon urushi fronti jang maydonlarida o'zbek o'g'lonlaridan Sobir Rahimov, Ahmadjon Shukurov, Qo'chqor Turdiyev, Vois Ergashev, Mamadali Topiboldiyev, Abdusalom Dehqonboyev, Tojjali Boboyev, Ostonaqul Shokirov, Elboy Qoraboyev va boshqa yuzlab mardu maydonlar jang maydonlaridagi ko'rsatgan jasoratlari uchun «Sovet Ittifoqi Qahramoni» unvoniga ega bulib yurtimiz dovrug'ini ulug'ladilar.

1939-45 yillarda bo'lib o'tgan bu urushda O'zbekistonlik jangchilardan 120 ming kishi SSSR ning turli orden va medallari bilan taqdirlandi. Shulardan 300 dan ortiq kishiga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi. Shunday qilib ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlari, o'zbekning mard o'g'il-qizlari front orqasida, shuningdek urushning dahshatli jang maydonlarida mehnat va jangovarlik jasoratlarini ko'rsatib sovet xalqining bu urushda erishgan umumiy g'alabasiga o'zining salmoqli ulushini qo'shdi Barcha sovet jangchilari “Bir qadam ham orqara chekinilmasin!” degan shior ostida mardonavor kurash olib bordilar. Ular dushmanning yuzlab hujumini qaytardilar. Shaharning o'zida har bir ko'cha, har bir



uy uchun qattiq janglar bo'ldi. Nemis-fashist qo'shinlarining hujumini to'xtatibgina qolmay, balki Qizil Armiyaning 1942 yilning oxirida boshlangan qarshi hujumiga ham sharoit yaratilgan edi. Sovet qo'shinlarining shitob bilan boshlangan hujumi gitlerchilarning 330 mingli qo'shilmalarini qurshovga olish imkonini berdi. Saflarida ko'plab o'zbekistonlik jangchilar bo'lgan 333-o'qchi diviziya qamqlal qilingan dushman qismlarini tugatishda misli ko'rilmagan qahramonlik ko'rsatdi. Chunonchi, minyor Maxmud Abdullayev janglarda mardlik ko'rsatdi. Abdullayev Kosonogov va Podskalniy xutorlari rayonida dushmanning kuchli minomyot-artilleriya o'ti ostida maydonni minalardan tozalab, bo'linmalarimizning hujumga o'tishi uchun yo'l ochib berdi. Stalingrad ostonalarida bo'lgan hamma janglarda qizil askar M. Abdullayev dovyuraklik va mardlik namunasini ko'rsatdi. O'zbekistonlik mard jangchilar Ukraina va Belorussiya, Kavkaz va Boltiq bo'yiyerlarini dushmandan ozod qilishda, qamalda qolgan Leningradni himoya qilish, xullas SSSRni dushmandan tozalash, qardosh Yevropa xalqlariga yordam qo'lini cho'zishda hamda gitlerchilar fashizimni o'z uyasida tor-mor keltirishda qahramonlik namunalari ko'rsatdilar. O'zbek xalqi fashist gazandalardan Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Rumuniya, Bolgariya, Yugoslaviya, Albaniya hamda Germaniya xalqlarini ozod qilishda qatnashib, o'zining baynalmilalchilik burchini ado etgan, asl farzandlari bilan haqli sur'atda faxrlanadi. Bular orasida qizil armiya generallari, Sovet Ittifoqi Qahramonlari Sobir Rahimov, Mullajon Uzoqov va Fayzulla Norxo'jayevlar alohida diqqatga, e'tiborga loyiqdirlar. Yaponiya imperializmiga qarshi olib borilgan janglarda ham qo'shinlarimiz qahramonlik namunalari ko'rsatdilar. Jami bo'lib o'zbek jangchilaridan 6770 kishi Yaponiya militarizmiga qarshi kurashda SSSRning ordeni va medallari bilan taqdirlandi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, urush har qanday zamonlarda ham insoniyat boshiga tushgan og'ir davr hisoblanadi: minglab qurbonlar beriladi, insonlar o'z yaqinlaridan ajraladilar va urush bo'lgan hududlardagi barcha joylar vayron bo'ladi. Shu paytgacha bo'lib o'tgan urushlar orasida ikkinchi jahon urushi insoniyat boshiga eng ko'p ko'rguliklar solgan urush hisoblanadi. Xususan, frontga safarbar qilingan 1 million 433.230 o'zbekistonlik jangchidan 263.005 kishi halok bo'ldi, 132,670 kishi bedarak yo'qoldi va 60452 kishi o'z o'lkasiga nogiron bo'lib qaytdi. Bu hisobga urush yillarida ochlik - yalong'ochlikdan qirilib ketgan ming-minglab vatandoshlar ham qo'shiladigan bo'lsa, xalqimizning boshiga tushgan dahshat va fojining nechog'lik og'ir bo'lganligini ko'z oldimizga keltira olamiz. Shunday bo'lsada, o'zbekistonlik jangchilar frontda jasorat va qahramonlik namunalari ko'rsatdilar.

**Foydalingan adabiyotlar.**

1. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: O'zbekiston, 1996.
2. Jo'rayev T. O'zbekiston jangchilari Ulug' Vatan urushi frontlarida. – T.: Fan, 1975 .
3. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi 3-kitob. – T.: Sharq, 2010.
4. Kattabekov A., va boshqalar. O'zbek sovet adabiyot tarixi. T., "O'qituvchi", 1990 y.
5. KPSS s'ezdlari, konferentsiyasi va MK plenumlarining rezolyuatsiya va qarorlarida To'rtinchi jild. 1927-1991 y. T., "O'qituvchi", 1983 y.
6. Lenin V.I. O'rta Osiyo va Qozog'iston to'g'risida Toshkent, 1960 y